

SHAYX AHMAD TAROZIYNING “FUNUN UL-BALOG‘A” RISOLASIDA JUZVLAR TAHLILI

Ibodullayeva Shalola O‘tkir qizi

O‘ZMU O‘zbek adabiyoti yo‘nalishi bitiruvchisi

Annotatsiya: *Bu tezisdagi Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” risolasidagi aruz masalalariga bag‘ishlangan to‘rtinchi bob, ilmiy aruzdagi asosiy o‘lchov birligi hisoblanuvchi juzvlar tahlili bo‘yicha qisqacha so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: juzv, ritmik birlik, rukn, aruzshunoslik.

Aruz ilmidagi eng kichik ritmik bo‘lak sifatida ayrim mutaxassislar (arab va fors an‘analariga muvofiq) harfni, ayrimlari esa (turkiy aruz xususiyatlaridan kelib chiqqan holda) hijoni ko‘rsatishadi¹. Yana bir qator olimlar esa juzvlarga aruz vaznining eng kichik ritmik bo‘lagi sifatida qaraydilar. Deyarli barcha aruzshunoslar o‘z risolalarida aruzning nazariy masalalarini yoritishni juzvlar tavsifidan boshlaganlar. Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asari ham bundan mustasno emas².

Juzv (arabcha - bo‘lak, butun emas) - aruz vaznining kichik ritmik bo‘lagi. U arab alifbosidagi sokin va mutaharrik harflarning turli tartib va miqdorda kelishidan hosil bo‘ladi. Aruzshunoslikka doir risolalarda bu tushuncha ba‘zan asl (Shayx Ahmad Taroziy), ba‘zan rukn (Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Atoulloh Husayniy) istilohi bilan berilgan. Xalil ibn Ahmad, Nasiruddin Tusiy, Bobur kabi ijodkorlar esa juzv atamasini qo‘llaganlar.

Aruzshunoslik ilmida juzvning 3 turi mavjud. Ular ham o‘z navbatida ikki guruhga ajraladi. Shayx Ahmad Taroziy ularni “usuli sitta” (olti asl) nomi bilan keltiradi. Olim juzvlar tahliliga kirishar ekan quyidagi fikrlarni keltiradi: “Va aruz ahlining istilohi birla asl olti kelibtur. Oni usuli sitta o‘qurlar. Ondin ikkisini sabab

¹ Ziyaviddinova, M., Xudjanova, D. Aruz ilmi. Toshkent: Noshir - 2019. - B. 12.

² Yusupova, D. Temuriylar davridagi aruzga doir risolalarning qiyosiy tahlili. filol. fan. dokt. diss -Toshkent, 2019. - B. 126.

derlar. Va ikkisini vatad o'qurlar. Va ikkisini fosila"³. Bu juzv turlarining har birini misol bilan tahlil qiladi.

Sababi hafif (yengil sabab) bir mutaharrik va bir sokin harfdan tashkil topadi. Aruzshunoslikda bir cho'ziq hijoni ifodalaydi: *lam*

Sababi saqiyl (og'ir sabab) ikki mutaharrik harfning ketma-ket kelishidan hosil bo'ladi. Aruzshunoslikda ikki qisqa hijoni bildiradi: *ara*

Vatadi majmu (birikkan qoziq) ikki mutaharrik va bir sokin harfning birikuvidan tarkib topadi. Zamonaviy aruzshunoslikda qisqa hijodan so'ng cho'ziq hijoning kelishini anglatadi: *Ali*

Vatadi mafruf (ajratilgan qoziq) bir mutaharrik, bir sokin va yana bir mutaharrik harfdan tashkil topgan juzv. Aruzshunoslikda cho'ziq hijodan so'ng qisqa hijoning kelishi: *ra's*

Fosilai sug'ro (kichik fosila) uch mutaharrik harfdan keyin bir sokin harfning kelishidan hosil bo'luvchi birlik. Aruzshunoslikda ikki qisqa hijodan so'ng bir cho'ziq hijoning kelishi: *jabala*.

Fosilai kubro (katta fosila) to'rt mutaharrik harfdan keyin sokin harfning kelishidan hosil bo'luvchi so'nggi juzv. Aruzshunoslikda uch qisqa hijodan so'ng bir cho'ziq hijoning kelishi: *samaka*. (Lekin aslida samaka so'zi fosilai kubroga emas fosilai sug'roga misol bo'ladi. Bu yerda ko'chiruvchi xattotning xatosi bo'lishi mumkin.)

Boburning "Aruz risolasi" juzvlar talilida alohida ahamiyatga ega. Bu Faqatgina Bobur o'z risolasida juzvlarning an'anaviy turlarini sharhlar ekan, yuqoridagi ajam olimlarining qarashlariga ham o'z ijobiy munosabatini bildirgan. Dastlab sababi mutavassit haqida to'xtab o'tilgan.

³ Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balog'a.- Toshkent: Xazina, 1996. - B. 68.

Sababi mutavassit bir mutaharrik va ikki sokin harfdan hosil bo'radi va aruzshunoslikda o'ta cho'ziq hijoni ifodalaydi: *kor*, *qayt*. Bu juzv odatda misraning so'nggida keladi.

Vatadi kasrat ikki mutaharrik va ikki sokin harfdan iborat bo'radi. Aruzshunoslikda bu juzv bir qisqa va bir o'ta cho'ziq hijoni tashkil qiladi: *nishon*, *daraxt*.

“Funun ul-balog'a” asariga asos bo'lgan manbalardan biri Nasiruddin Tusiyning aruz risolasidan boshlab Taroziy, Alisher Navoiy, Atoulloh Husayniy, Boburning asarlarida ham fosila aruz vazni uchun ahamiyatsiz deb hisoblanadi. Atoulloh Husayniy bu fikrni quyidagicha izohlaydi: “Ba'zilar fosila alohida rukn emas depturlar va fosilai sug'ro ikki, birinchisi saqilu, ikkinchisi hafif sababdin iborattur, fosila-yi kubro ersa, sabab-i saqilu, vatad-i majmu'din. Demak, haqiqatta she'r vaznlari ikki ruknga asoslaniptur, biri sababu, ikkinchisi vataddir”⁴. Darhaqiqat, kichik fosila, sabai saqil va sababi hafifdan, katta fosila esa sababi saqil va vatadi majmu'dan hosil bo'lishini ko'rish mumkin. Shu bois ham qator olimlar, jumladan Taroziy ham bu juzv turini aruzshunoslikdagi ahamiyatini yuqori baholamaydi. Dilnavoz Yusupovanning ta'kidlashicha, bu boradagi ilk fikrlarni Xalil ibn Ahmadning izdoshi Abulhasan Axfash aytib o'tgan⁵.

Shuningdek, juzvlarni tavsiflash borasida Atoulloh Husayniy chuqurroq yondashgan va u keltirilgan asliy ruknlardan ikkitasini munqati' (ajratib yoziluvchi) ekanligini aniqlagan. Shayx Ahmad Taroziy “Funun ul-balog'a” risolasida juzvlardan ruknlar hosil qilishda hech qaysi manbada uchramaydigan uxti (qarindoshlik) tamoyilidan foydalangan.

⁴ Atoulloh Husayniy. Badoyi-us-sanoyi / Forschadan A. Rustamov tarjimai. - Toshkent: G'G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. - B. 10.

⁵ Yusupova D. Aruz vaznining kvalitatiflik xususiyatlariga doir / Adabiyot ko'zgusi. -Toshkent, 2008. - B. 28.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, aksariyat manbalarda juzvlar eng kichik aruziy ritmik bo'lak hisoblanib, risolalarda dastavval ularning tahlili berilgan. Taroziy ham juzvlarni tasniflar ekan, o'zidan oldingi aruzshunoslar yo'lidan borgan. Jomiy, Atoulloh Husayniyda bu borada misol keltirishda forsiy so'zlardan foydalanilgan bo'lsa, Taroziy, shuningdek, Navoiy va Boburda ham asosan turkiy so'zlardan foydalanish kuzatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balog'a.- Toshkent: Xazina, 1996.
2. Yusupova D. Aruz vaznining kvalitatiflik xususiyatlariga doir / Adabiyot ko'zgusi. -Toshkent, 2008.
3. Atoulloh Husayniy. Badoyi-us-sanoyi / Forschadan A. Rustamov tarjimasi. - Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.
4. Ziyaviddinova. M, Xudjanova. D. Aruz ilmi. Toshkent: Noshir - 2019.
5. Yusupova. D. Temuriylar davridagi aruzga doir risolalarning qiyosiy tahlili. filol. fan. dokt. diss -Toshkent, 2019.